

ABDULLA QAHHORNING “DAHSHAT” HIKOYASIDAGI SO‘ZLARNING SEMIOTIK TAHLILI

Rasulova Shahlobonu Shavkat qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti

O‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abdulla Qahhorning “Dahshat” hikoyasi struktural va semiotik jihatdan tahlil qilindi. Hikoyadagi belgi munosabat bildiruvchi so‘zlar tatqiq etildi.

Kalit so‘zlar: Badiiy tahlil , strukturalizm , semiotika , belgilar , Abdulla Qahhor, “Dahshat” hikoyasi.

Keywords: Artistic analysis, structuralism, semiotics, signs, Abdulla Qahhor, story “Horror”.

Ключевые слова: Художественный анализ, структурализм, семиотика, знаки, Абдулла Каххор, рассказ “Ужас”.

KIRISH: Badiiy matnning asosiy xususiyatlaridan biri uning cheksizligida ko‘rinadi. Mana shu cheksizlik alomatiga ko‘ra matnni koinotga muqoyasa etish mumkin. Bunday bepoyonlik matnning gorizonta (yon) va vertika (tik) ravishda har tarafta qarab muttasil kengayib borishi tufayli yuzaga keladi. Natijada matn o‘zining hajmi, chegaralarini uzluksiz uzaytiradi. Ushbu kattalashish matnning harakati, ya’ni o‘zidagi belgilarning bir-biri bilan doimiy aloqa-munosabatlarga kirishishidan yuzaga keladi. Atoqli semiotik, postmodernizm namoyandasi Rolan Bart badiiy asardan farqli ravishda badiiy matnga ko‘plik xususiyati xosligini ko‘rsatgan edi. Uning yozishicha, matnda mazmun aynan mana shu ko‘plik matnni yuzaga keltirishga xizmat qiladi. “Matnning ko‘pligi uning mundarijasidagi unsurlarning ikki ma’no (denotativ va konnotativ)ga ega bo‘lishi bilan emas, bildiruvchilarning ko‘p tarmoqligi sababli paydo bo‘ladi”.¹ Olim aynan mana shunaqa bildiruvchilar matn “mato”sini hosil qilishini ko‘rsatgan.

Biz ushbu ishda yozuvchi Abdulla Qahhorning “Dahshat” hikoyasining semiotik tahlili orqali matn cheksizligi hodisasini oydinlashtirishga harakat qilamiz.

Mazkur badiiy yaratma yozuvchining tarixiy mavzuda yaratgan boshqa hikoyalari – “Anor”(5,5 bet), “Bemor”(2,2 bet) “O‘g‘ri”(qariyb 4 bet), “Millatchilar”(4,5 bet), “Tomoshabog‘”(2,3 bet)dan hajm jihatdan birmuncha katta – o‘zi hayotligida nashrga tayyorlagan olti jildlik “Asarlar”ining birinchi jildida sakkiz

¹ Барт Р. Избранные работы: Семиотика: Поэтика: Пер. с фр. / Сост., общ. ред. и вступ. ст. Г. К. Косикова. — М.: Прогресс, 1989. — С.416.

sahifani tashkil qiladi. Bu farqning sababi shundaki, adib hikoyachilik faoliyatining dastlabki bosqichi (o'tgan asrning 30-yillarida) imkon darajasida qisqalikka rioya qilgan. Shunga qaramay, urush (1941-1945 yillar) kelib garchi muxtasar tasvirlash prinsipidan voz kechmagan bo'lsa-da, ushbu janrda yaratilgan ba'zi asarlari hajman kattalashgani ko'rinadi: "Asror bobo" 15, "Xotinlar" 20, "Kartina" 11, "Dumli odam" 10, "Nurli cho'qqilar" 12 betdan iborat. Aslida hikoya "qisqa epik janr" deb hisoblansa-da, uning ixchamligi sahifalarning ozligidan kelib chiqmaydi; qissa va romanga nisbatan hajman kichikligi bu badiiy shaklga yuqorida ko'rsatilgan ta'rif-baho berilishiga sabab bo'lgan. Binobarin, mazkur nasr shaklining 10-15, hatto undan ko'p sahifadan tashkil topishi odatiy hol hisoblanadi. Tadqiqotchi Bahor Shukurovaning yozishicha, hikoyada qisqalik bo'yicha Abdulla Qahhorning ustozlari hisoblangan Anton Chexovning ba'zi kichik asarlari 50-100 bet doirasida yaratilgan, uning "Chiroqlar" (1988) - 37, "Zerikarli voqea" (1890) - 67, "Noma'lum odam hikoyasi" (1893) - 82 betni tashkil etadi.²

Bir janr (hikoya) doirasida hajmning ixchamligi yoki kattaligi undagi belgilarning adadi, bu miqdor esa ifoda etilishi lozim bo'lgan badiiy konsepsiyaning talab hamda ehtiyojlari bilan bog'liq.

TADQIQOT METODI VA NATIJASI: Badiiy matn tadqiqida sarlavhaning alohida, ustuvor o'rni va vazifalari bor. Sarlavha hamisha matndagi yetakchi fikrni yuzaga chiqaruvchi ochqich rolini o'taydi. Shu boisdan biz tahlil uchun tanlab olingan hikoya matnining sarlavhasiga dastlabki e'tiborimizni qaratamiz.

"Dahshat". Dastavval sarlavha sifatida tanlab olingan bu lug'aviy birlikning birinchi semasiologik tizim (til)dagi ma'nosiga e'tiborni qaratamiz, chunki so'zning birlamchi (denotativ) ma'nosi tahlil jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Arab tilidan o'zlashgan bu kalima hayronlik, hayratda qolish ma'nolarini bildiradi

"O'zbek tilining izohli lug'ati" da bu birlikning bir-biriga aloqador bo'lgan uchta ma'nosi berilgan:

1. Nihoyat darajada qo'rqinch, xavf, vahima.
2. Azob-iztirobga soluvchi mudhish ahvol, voqea-hodisa, manzara.³
3. Ortiq darajada qo'rqan, vahimaga yoki azob-iztirobga tushgan kishining, ko'rinishi, ruhiy-holati.

Matn tarkibidagi belgilarni tahlil qilish jarayonida sarlavha ("Dahshat")ning yuqorida qayd etilgan qaysi kategoriyaga mos kelishini tekshiramiz. Badiiy-poetik tizimning dastlabki leksiya (birli) quyidagicha berilgan:

² Shukurova Bahor Boltayevna. Zamonaviy o'zbek hikoyachiligi poetikasi (Sh.Xolmirzaev, E. A'zam, N.Eshonqul ijodi asosida). Филол. фан. бўй. фал. д-ри (PhD). дисс. Бухоро – 2024. – Б. 35

³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдди. Биринчи жилд. – Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат миллий нашриёти, 2006 . – Б. 583-584.

“Yaqin ikki haftadan beri ko‘z ochirmayotgan kuzak shamoli yaydoq daraxtlar shoxida chiyillaydi, uvillaydi; tomlarda vishillaydi, yopiq eshik va darchalarga bosh urib uf tortadi”.⁴

Ushbu bo‘lakda bitta belgi mavjud bo‘lib, u bir vaqtning o‘zida ham asl (denotatsiya), ham ko‘chma (konnotatsiya) fikrni ifodalamoqda. Aynan shu belgi (shamol) misolida biz Rolan Bart ko‘rsatgan “bildiruvchining ko‘p tarmoqligi” ekanligini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi.

Shamol har qanday matndan tashqarida alohida olib qaralganda, faqat denotatsiya tarzida namoyon bo‘lib, tabiat hodisasi (havoning bir yoki turli tomonga qarab jadal harakati)ni anglatadi. Biz tahlil etayotgan matnda esa u ikki qatlamning har bir birida alohida xususiyatga ega bo‘lgan birlik tarzida qo‘llanilgan.

Matnning dastlabki qatlamida shamol lug‘aviy birligi so‘z sifatida o‘zining denotativ xususiyatini saqlab qolgan va u kommunikativ (axborot yetkazish) vazifasini bajarmoqda: adresatga voqea (ikki haftadan buyon shamol esayotgani) haqida xabar bermoqda. Shu bilan birga, u sintaktik segment tarkibida chiyillaydi, g‘uvillaydi, vishillaydi, bosh urib uf tortadi sof fe‘llari va ravishdosh bilan birikib birlamli konnotatsiyani hosil qilyapti. Matn doirasida shamol shunchaki shiddat bilan esmayapti; qandaydir maxluq-jonzod tarzida namoyon bo‘lib badiiy tasvir vositasi (intoq)ni yuzaga keltiryapti. Garchi shamol birligi adresant nutqidagi oddiy axborotdan farqli suratda badiiy-poetik ifodaga aytilgan bo‘lsa-da, u dastlabki badiiy sathda kitobxonga shamolning o‘ta shiddat bilan atrofga xuruj qilayotganini hususida badiiylashtirilgan tasvir asosidagi xabar bilan cheklangan.

Navbatdagi badiiy sathda shamolga bog‘liq badiiy bo‘lak ramziy xususiyat kasb etadi. U konnotatsiya tarzida ayol erkini paymol etayotgan muhit (dodho xonadoni va istibdodni o‘z shaxsi va harakatlarida mujassamlashtirgan yovuz shaxs, keng miqyosda olib qaralganda esa nafaqat ayol, shuningdek. zulmga giriftor etgan ijtimoiy tizim)ni va mana shu muhitni yuzaga keltirgan istibdod vakillarini ifoda etadi.

Mazkur sathdagi tiyiqsiz har tomonga bosh urayotgan shamol konnotativ birlik sifatida izohli lug‘atda qayd etilgan birinchi banddagi izohga mos kelyapti (nihoyat darajada qo‘rqinch, xavf, vahima) – u hali azob-iztirobga soluvchi mudhish ahvol, voqea-hodisa, manzara yoxud ortiq darajada qo‘rqan, vahimaga yoki azob-iztirobga tushgan kishining, ko‘rinishi, ruhiy-holatini ifodalamaydi. Bu holni quyidagi chizmada ko‘rsatamiz:

⁴ Абдулла Қаҳҳор. Асарлар. Олти томлик. Биринчи том. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги бадий адабиёт нашриёти, 1967. – Б. 41. Ҳикоядаги кейинги иқтибослар ҳам мана шу манбадан олинган ва матнда саҳифаси кўрсатилган.

nihojat darajada qo'rqinch, xavf, vahima
shamol



Ma'lum bo'lyaptiki, hikoya matni muqaddimasidagi dastlabki leksiyada ifoda topgan belgi (shamol) hali biror-bir voqea, insonga bog'lanmagan holda tasvirlangan. Biroq badiiy matndagi har qanday tasvir, ifoda o'z-o'zicha poetik tizimga shunchaki kiritilmaydi. U matn strukturasida o'ziga aloqador muayyan bir vazifani bajarishi kerak bo'ladi. Rus yozuvchisi A.P. Chexovning pyesa boshida devorga osilgan miltiq asar tugaguncha bir marta bo'lsa ham otilishi zarur degan fikri bejiz aytilmagan. Shunday ekan, badiiy matn strukturasida shamol belgisi ham matn davomida o'zining badiiy-poetik yumushini bajarishi ko'zga tutilgani ayon haqiqatdir. Faqat mana shu haqiqatni semiotik tadqiq davomida oydinlashtirish zarur bo'ladi.

Tabiiyki, adresant tomonidan adresatga mo'ljallangan ushbu segment va undagi belgi kitobxonda qiziqish uyg'otadi, chunki chinakam matnda har bir tasvir, ifoda, shuningdek, so'z, hatto so'z tarkibidagi fonemalar va tinish belgilari badiiy strukturani yuzaga keltirish, uning "to'qima" sini mukammallashtirish ishiga xizmat qiladi. Xususan, matnning badiiy-poetik yaxlitligini yuzaga keltirishdagi asosiy vazifani undagi belgilar, ular orasidagi aloqa-bog'lanishlar bajaradi.

XULOSA: Odamlar turmushidan olingan epizodlarda, lavhalarda ular hayotiga, qismatiga daxldor fojiaiy mohiyatni ko'rish, teran his etish, personajlar xarakteri va qismatini ularning ruhiyati ifodasi orqali yorqin badiiy detallar vositasida gavdalandirish Qahhor hikoyanavislik san'atining eng muhim jihatlaridir. Shu o'rinda Said Ahmadning Qahhor hikoyalari haqidagi ushbu fikrlari o'rinlidir. "Abdulla Qahhor hikoya va qissalaridagi har bir so'z, har bir iboraning o'zni shu qadar muqim va mustahkamki, ularni boshqa so'z, boshqa ibora yoxud jumla bilan o'zgartirish deyarli imkonsiz. Men tajriba uchun ustozning "O'gri", "Bemor", "Anor" hikoyalaridagi ba'zi so'zlarni olib tashlab ko'rdim. Bo'lmadi. Hikoya bir ustuni olib tashlangan ayvonga o'xshab lapanglab qoldi". Abdulla Qahhor hikoyalarida o'ziga xos belgi munosabatlardan foydalangan. Qahhor hikoyalarida timsollar, ramzlar, belgilar bildiruvchi birliklar talaygina. Ushbu birliklarning mohiyatini o'rganish hikoyalarning tub mohiyatini to'laqonli tushunishga yordam beradi. Hikoya janrida sutrukural va semiotik tahlilni qo'llash asar jozibasini va muhitini yanada teranroq tasavvurlarda aks ettiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Барт Р. Избранные работы: Семиотика: Поэтика: Пер. с фр. / Сост., общ. ред. и вступ. ст. Г. К. Косикова. — М.: Прогресс, 1989. — С.416.

2. Shukurova Bahor Boltayevna. Zamonaviy o'zbek hikoyachiligi poetikasi (Sh.Xolmirzaev, E. A'zam, N.Eshonqul ijodi asosida). Филол. фан. бўй. фал. д-ри (PhD). дисс. Бухоро – 2024. – Б. 35
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. Биринчи жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат миллий нашриёти, 2006 . – Б. 583-584.
4. Абдулла Қаҳҳор. Асарлар. Олти томлик. Биринчи том. – Тошкент:Ғафур Ғулом номидаги бадий адабиёт нашриёти,1967. – Б. 41.